

*Hamroyev Shuhrat Eliyevich*

*pedagogika fanlari nomzodi, Shahrissabz davlat pedagogika instituti kafedra mudiri*

[hamroyev-shuhrat@mail.ru](mailto:hamroyev-shuhrat@mail.ru)

*Usmonova Shahina Xudonazar qizi*

*Shahrissabz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi*

[usmonovashahina21@gmail.com](mailto:usmonovashahina21@gmail.com)

## BOSHLANG'ICH TA'LIM DASAVOL--JAVOB O'YINLARINI O'TKAZISH TAJRIBASIDAN

**ANNOTATSIYA:** O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning samarali shakl va usullarini ishlab chiqish juda muhim. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston-taraqqiyot strategiyasi" asari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarning muhim shakllaridan biri qiziqarli savol-javob o'yinlarini o'tkazish hisoblanadi. Qiziqarli savol-javob o'yinlarini turli shakllarda o'tkazish mumkin: ma'lum bir fan bo'yicha (o'qish, matematika); bayramlar, maktab hayotidagi muhim sanalar bo'yicha ("Navro'z – ulug' bayram", "M.Ochilov-atoqli pedagog"); sinfdan tashqari o'qilgan asarlar bo'yicha ("Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" darsligida axloq-odob to'g'risida", "Yangi usul maktabi tarafdorlari axloq-odob to'g'risida"); o'qish darslarida o'tilgan mavzular bo'yicha ("Ertaklar – yaxshilikka yetaklar"); jamiyat hayotidagi o'zgarishlar haqida («I.A.Karimov – O'zbekistonning Birinchi Prezidenti», «Mustaqil davlatimiz rahbari») va boshqalar. Bu ishlarni boshlang'ich sinflardanoq amalga oshirish o'zining ijobiy natijalarini beradi. Maqolada boshlang'ich sinflarda savol-javob o'yinlarini tashkil qilish va o'tkazish tajribasi masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** sinfdan tashqari ishlar, tarbiyaviy ishlar, axloq-odob, bayramlar, muhim sanalar, jamiyat hayoti, savol-javob o'yinlari, boshlang'ich ta'lim, o'qish, matematika, tashkil qilish, o'tkazish, o'qituvchi.

**ANNOTATION:** It is very important to develop effective forms and methods of developing students' spiritual and moral qualities. The President of the Republic of Uzbekistan Sh. M. Mirziyoyev's work "New Uzbekistan-Development Strategy" serves as a methodological basis. One of the important forms of extracurricular activities in elementary grades is conducting interesting question-and-answer games. Interesting question-and-answer games can be held in various forms: on a specific subject (reading, mathematics); on holidays, important dates in the life of the school ("Navroz is a great holiday", "M. Ochilov is a famous pedagogue"); on the works read outside the class ("On ethics in Abdullah Avlani's textbook "Turkish Gulistan or Ethics", "On ethics of supporters of the New Method School"); on topics covered in reading classes ("Fairy tales - leads to goodness"); about changes in the life of society ("I.A. Karimov - the First President of Uzbekistan", "The leader of our independent state") and others. Doing these things from the elementary grades will have positive results. The article describes the experience of organizing and conducting question-and-answer games in primary classes.

**Key words:** extracurricular activities, educational activities, morals, holidays, important dates, community life, question and answer games, primary education, reading, mathematics, organizing, conducting, teacher.

**АННОТАЦИЯ:** Очень важно разработать эффективные формы и методы развития духовно-нравственных качеств учащихся. Президент Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёева «Новая стратегия развития Узбекистана». Одной из важных форм внеклассной работы в младших классах является проведение интересных игр

«вопрос-ответ». Интересные игры в вопросы и ответы могут проводиться в различных формах: по определенному предмету (чтение, математика); в праздники, важные даты в жизни школы («Навруз – великий праздник», «М. Очилов – известный педагог»); по произведениям, прочитанным вне занятий («Об этике в учебнике Абдуллы Авлани «Турецкий Гулистан или Этика», «Об этике сторонников школы нового метода»); по темам, рассматриваемым на занятиях по чтению («Сказки – ведут к добру»); об изменениях в жизни общества («И.А.Каримов – Первый Президент Узбекистана», «Лидер нашего независимого государства») и другие. Выполнение этих действий с начальных классов будет иметь положительные результаты. В статье описан опыт организации и проведения игр «вопрос-ответ» в начальных классах.

**Ключевые слова:** внеклассная деятельность, образовательная деятельность, нравственность, праздники, важные даты, общественная жизнь, игры в вопросы и ответы, начальное образование, чтение, математика, организация, проведение, учитель.

**Kirish.** O‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning samarali shakl va usullarini ishlab chiqish juda muhim. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev “Yangi O‘zbekiston-taraqqiyot strategiyasi” asarida: “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarining mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi va xavflilar payoda bo‘layotgan bugungi kunda ma‘naviyat va ma‘rifatga, aholi barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e‘tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Negaki, mamlakatimizdagi mavjud uzluksiz ta‘lim tizimi aholining beshdan bir qismini qamrab olgan. Ushbu tizim qamrab olgan bolalar va o‘smirlardan tashqari, sholining katta qismi orasida ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya ishlarining tizimli yo‘lga qo‘yilishi va bu borada yuksak samaradorlikka erishish o‘tkir zaruratga aylanmoqda”-deb yozgan edi.[1:273]. Bu vazifalarni muvafaqqiyatli bajarish uchun shubhasiz, xalqimizning bir necha asrlarga borib taqaluvchi urf-odat, an‘ana va qadriyatlarini hamda pedagogik merosidan, umumbashariyat tafakkur xazinasiga katta hissa ko‘shgan ma‘rifatparvarlarimizning axloqiy asarlaridan ijodiy foydalanish juda muhimdir. Zero, sinfdan tashqari vaqtda o‘quvchilar bilan olib boriladigan ishlar keng tarbiyaviy imkoniyatga ega bo‘lib, so‘z bilan ish birligini, axloqiy tushunchalarining xulqiy ko‘nikma, odat, malakalarga aylanishini ta‘minlaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy jihatdan kamol topishi, boshlang‘ich ta‘lim amaliyotida sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish mummosi bilan M.Q. Bozorova kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida do‘stlik, o‘rtoqlik hissini tarbiyalashda xalq an‘analaridan foydalanish muammosini o‘rgangan, u o‘z ishida o‘zbek xalq ertaklarini vosita qilib olgan [2] bo‘lsa, O. Musurmonova “Yuqori sinf o‘quvchilari ma‘naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari asosida” mavzusida pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qilgan[4]. “Odobnoma” darsligi orqali yuqori sinf o‘quvchilarini axloqiy madaniyatini shakllantirish muammosi bo‘yicha T. Qurbanov ilmiy tadqiqot ishini olib borgan [3]. Tlyabova N.U. esa, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda insonparvarlik his-tuyg‘ularini shakllantirish [8], shuningdek, Usmonov S. boshlang‘ich sinflarda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etishning pedagogik asoslari mavzusida dissertatsiya himoya qilganlar [9]. Sarsenbayeva R. M.[7], hamda Mavlonova R. A., Rahmonqulova N., Normurodova B., Matnazarova K. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanma[5] va darslik[6] nashr qildilar[7]. Hamroyev Sh. E. “Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish” mavzusida monografiya chop ettirgan.[10]

**Nazariy asos.** Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarning muhim shakllaridan biri qiziqarli savol-javob o‘yinlarini o‘tkazish hisoblanadi. Ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib qiziqarli savol-javob o‘yinlarini turli shakllarda o‘tkazish mumkin.

- ma'lum bir fan bo'yicha (o'qish, matematika);
- bayramlar, maktab hayotidagi muhim sanalar bo'yicha ("Navro'z – ulug' bayram", "M.Ochilov-atoqli pedagog");
- sinfdan tashqari o'qilgan asarlar bo'yicha ("Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" darsligida axloq-odob to'g'risida", "Yangi usul maktabi tarafdorlari axloq-odob to'g'risida");
- o'qish darslarida o'tilgan mavzular bo'yicha ("Ertaklar – yaxshilikka yetaklar");
- jamiyat hayotidagi o'zgarishlar haqida («I.A.Karimov – O'zbekistonning Birinchi Prezidenti», «Mustaqil davlatimiz rahbari») va boshqalar.

Odatda qiziqarli savol-javob o'yinlari parallel, ba'zi hollarda esa, maktablar o'rtasida o'tkaziladi. Olib borgan kuzatishlarimiz, tadqiqot ishimizning xususiyatidan kelib chiqib o'tkazgan bir qator qiziqarli savol-javob o'yinlarining natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinflarda qiziqarli savol-javob o'yinlari o'tkazish uchun quyidagilarga alohida e'tibor berilishi lozim:

- qiziqarli savol-javob o'yinlari o'tkazishdan ko'zda tutilgan maqsad;
- qiziqarli savol-javob o'yinlari o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish;
- qiziqarli savol-javob o'yinlarining natijalari.

Sinfdan tashqari ishlarning tarkibiy qismlaridan biri qiziqarli savol-javob o'yinlarini o'tkazish hisoblanib, undan ko'zda tutilgan maqsad aniq bo'lmog'i lozim. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, aksariyat hollarda bu sohada qator kamchiliklar mavjud:

maqsad aniq ifodalanmasligi;

o'yinning savollari chala holicha, pedagogik talablarga javob bera olmaydigan qilib tuzilishi; yaxshi tayyorgarlik ko'rilmay, shoshma-shosharlik bilan, hisobot uchun o'tkazilishi.

Biz bir qator savol-javob o'yinlarini o'tkazdik. Bundan ko'zda tutilgan maqsad quyidagilardan iborat:

tajriba sinflarimizda jadidlarning axloq-odobga doir hikoya va she'rlarini o'rganish;

sinfdan tashqari o'qish darslarida jadid ma'rifatparvarlarining hayoti, faoliyati va axloq-odobga doir asarlaridan olgan bilimlarini savol-javob o'yinlarga tayyorlanish va o'tkazish orqali mustahkamlash, uning natijalarini tahlil qilish;

jadid ma'rifatparvarlarining hayoti, faoliyati hamda axloq-odobga doir boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarini savol-javob o'yinlariga tayyorlanish hamda o'tkazish orqali mustahkamlash.

Biz o'tkazgan savol-javob o'yinlarining dasturlarida, tuzilgan savollarda, tanlab olingan qo'shiq, she'r va hikoyalarda, hatto, jismoniy tarbiyaga doir mashqlarda ham, bu hol o'z aksini topdi va inobatga olindi.

Boshlang'ich sinflarda qiziqarli savol-javob o'yinini o'tkazish uchun tayyorlanish davrida quyidagilarga alohida e'tibor berildi:

qiziqarli savol-javob o'yini mavzusini tanlash, materiallar to'plash;

qiziqarli savol-javob o'yini dasturini, savollarini puxta o'ylab tuzish;

o'yinni tayyorlash, uni o'tkazish hay'atini tuzish;

boshlang'ich sinf o'quvchilariga qiziqarli savol-javob o'yini haqida tushuncha berish;  
mavzuga doir kitoblar ko'rgazmasini tashkil etish;

o'yin bo'ladigan joyni jihozlash;

o'yinga ota-onalar qo'mitasidan, shuningdek, homiy tashkilotlardan vakillarni va albatta suratchini taklif qilish.

Qiziqarli savol-javob o'yinlari o'tkazishdan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalardan, to'plangan materiallardan kelib chiqib, o'yinning dasturi tuzildi. Dastur kirish, asosiy qism, badiiy qism va yakuniy qismlardan iborat bo'ldi.

Kirish qismda o'yindan ko'zda tutilgan maqsad, o'yin shartlari aytiladi. Hakamlar hay'ati tuzildi, ularning vazifalari ko'rsatib berildi. Shu bilan birga o'yinda qatnashuvchi jamoalarning o'zaro tabriklari, hakamlar hay'ati va muxlislarga munosabatlari, minnatdorchiliklari namoyon qilindi.

Asosiy qismda o'yindan ko'zda tutilgan maqsad to'la amalga oshirildi. O'yin uchun tuzilgan savollarga javoblar berildi va bu berilgan javoblar hakamlar hay'ati tomonidan baholandi, hamda qo'yilgan baholarga har bir shartdan keyin sharh berib o'tildi.

Badiiy qism o'yinni jonli o'tishida muhimdir. O'yinning bu qismida xalq og'zaki ijodi namunalari: maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar, milliy o'yinlardan, shuningdek, folklor-etnografik qo'shiqlardan, o'tmish va hozirgi shoirlarning purhikmat she'rlaridan, dilbar qo'shiqlaridan foydalanildi.

Yakuniy qismda o'yinga taklif qilingan ota-onalar, maktabni otaliqqa olgan homiy tashkilot vakillariga so'z berildi. Ular qiziqarli savol-javob o'yinidan olgan taassurotlari bilan o'rtoqlashdilar. Yutuq va kamchiliklarni ko'rsatib berdilar. Hakamlar hay'ati raisi ballarni, g'olib jamoani e'lon qildi va qimmatli sovg'alarni topshirdi. Maktab direktori o'yinga yakun yasadi.

**Tahlil va natijalar.** Tajriba-sinov ishlari Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 7-; Nishon tumanidagi 3-; Kasbi tumanidagi 32-; Mirishkor tumanidagi 1-; 2-; 6- umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganish maqsadida o'quvchilarga og'zaki-yozma ravishda savollar berildi. Olingan natijalar samarador ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Boshlang'ich sinflarda savol-javob o'yinlarini o'tkazishda Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik merosini o'rganib borish asos qilib olindi. Shu maqsadda anketa savollariga tajriba va nazorat sinf o'quvchilaridan javoblar olindi. Anketada javoblar uchun mo'ljallangan joylari bo'sh qoldirilib, birinchi va ikkinchi sinflarda-og'zaki, uchinchi va to'rtinchi sinflarda yozma ravishda javoblar olindi. Javoblarga qarab o'quvchilarni uch guruhga ajratdik:

I guruhga – ma'rifatparvar so'zining ma'nosini tushunadigan, unga ta'rif va tavsif bera oladigan; Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, faoliyati, asarlarini o'qigan, oilada muntazam ravishda she'r va hikoyalar o'qib yoki aytib berilayotgan; Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik merosini aniq va ravshan aytib beraoladigan; ularning pedagogik asarlarini ko'proq o'qishni xohlaydigan o'quvchilarni kiritdik.

II guruh – ma'rifatparvar so'zining ma'nosini umumiy tarzda biladigan, unga aniq ta'rif va tavsif bera olmaydigan; Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va asarlari bilan unchalik tanish bo'lmagan; Mahmudxo'ja Behbudiyning asarlarini ma'nosini yetarli darajada tushuntirib bera olmaydigan, oilada ota-onalar axloqiy she'r va hikoyalar muntazam aytib yoki o'qib berilmagan; Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik merosidan namunalarni ko'proq o'qishni istovchi o'quvchilarni kiritdik.



III guruhga – ma’rifatparvar so‘zining ma’nosini unchalik ham tushuna olmaydigan, bu so‘zga ta’rifu tavsif bera olmaydigan; Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va asarlari bilan tanish bo‘lmagan yoki o‘qigan she’r va hikoyalarning ma’no va mazmunini tushuntirib bera olmaydigan o‘quvchilarni; oilada ota-onalari ma’rifatparvarlarning she’r va hikoyalardan namunalar aytib bermaydigan, lekin Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va ayniqsa, axloq-odobga doir asarlarini o‘qishni xohlovchi o‘quvchilarni kiritdik.

### 1-jadval.

#### O‘quvchilardan olingan javoblar:

Ko‘rsatkich darajalari	Tajriba sinflari				Nazorat sinflari			
	Tajriba boshida		Tajriba oxirida		Tajriba boshida		Tajriba oxirida	
	сои	Фои	сои	фоиз	сои	фоиз	Сои	Фои
Yuqori	24	6	261	66	16	4	32	8
O‘rta	103	26	95	24	121	30	194	48
Quyi	268	68	39	10	266	66	177	44

Jadvalda ko‘rinib turganidek, nazorat sinflardagi 403-nafar o‘quvchidan tajriba boshida I guruh darajasidagilar miqdori 4-foiz bo‘lsa, tajriba oxiriga kelib 8-foizni tashkil qildi; II guruh darajasidagi o‘quvchilar tajriba boshida 30- foizdan tajriba oxiriga kelib 48-foizga yetdi. III guruh darajasidagi o‘quvchilar 66- foizdan 44-foizga tushdi. Tajriba sinflaridagi 395-o‘quvchidan esa I guruh darajasidagi o‘quvchilar miqdori tajriba boshida 6 -foiz bo‘lsa, tajriba oxiriga kelib 66- foizni tashkil qildi yoki 11- marotabaga oshdi; II guruh darajasidagi o‘quvchilar 26- foizdan tajriba oxiriga kelib 24- foizga tushdi; III guruh darajasidagi o‘quvchilar miqdori 68- foizdan 10- foizgacha kamaydi. Tajriba sinflarida bunday yutuqlarga erishishda, shubhasiz, sinfda o‘tilgan o‘qish, odobnoma, sinfdan va maktabdan tashqari o‘tkazilgan axloqiy mavzudagi suhbatlar, adabiy ertaliklar, kitob ko‘rgazmalari, kitobxonlik konferensiyalari, savol-javob o‘yinlari kabi tarbiyaviy ishlar muhim ahamiyat kasb etdi.

Tajriba-sinovda tajriba sinfida 395-nafar va nazorat sinfida 403- nafar o‘quvchi qatnashgan. Yuqoridagi jadvaldagi foizlarda berilgan ko‘rsatkichlarga asosan quyidagi jadvalni keltiramiz.

### 2-jadval

#### O‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini o‘zgarib borishi bo‘yicha olingan natijalar

Baholash Sinf	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish ko‘rsatkichlari		
		Yuqori	o‘rta	Quyi
Tajriba sinfi	395	166	154	75
Nazorat sinfi	403	73	173	157


Olingan ma’lumotlarni Styudent-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlil qilindi.

Tajribadan oldingi va keyingi natijalarni mos ravishda 1 va 2- tanlanmalar deb olsak, quyidagi variatsion qatorlarga ega bo‘lamiz.

1-tanlanma  $X_i$ : yuqori; o'rta; quyi;  
(tajriba sinfi)  $m_i$ : 166; 154; 75.  
 $m = 395$ .

2-tanlanma  $Y_j$  yuqori; o'rta; quyi;  
(nazorat sinfi)  $n_j$  73; 173; 157.  
 $n = 403$ .

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagrammani chizamiz:



**Rasm. 1. Tajribadan yakunidagi tajriba va nazorat guruhidagi umumiy ko'rsatgichlar diagrammasi**

Diagrammada qayd etilgan grafiklaridan anglanadiki, tajriba va nazorat guruhlari uchun tanlanma modal qiymatlari mos ravishda  $M_T = 5$  va  $M_H = 3$ , ya'ni ular orasidagi farq yetarli darajada bo'lib,  $M_T > M_H$  ekan. Bu esa, o'z navbatida, bu tanlanmalar uchun mos o'rta qiymatlar ham  $X > Y$  shartlarni qanoatlantirishini oldindan ko'rsatadi. Ularni quyidagi formula asosida hisoblaymiz:

$$\bar{X} = \frac{1}{m} \sum_{i=1}^{n=3} n_i x_i = \frac{1}{395} (166 \cdot 5 + 154 \cdot 4 + 75 \cdot 3) = \frac{1}{395} (830 + 616 + 225) = \frac{1671}{395} = 4,2$$

$$\bar{Y} = \frac{1}{n} \sum_{j=1}^{n=3} n_j y_j = \frac{1}{403} (73 \cdot 5 + 173 \cdot 4 + 157 \cdot 3) = \frac{1}{403} (365 + 692 + 471) = \frac{1528}{403} = 3,8$$

Demak, tajriba guruhi o'rtacha o'zlashtirish nazorat guruhidagidan katta ekan:  $X > Y$

Endi har ikki guruh uchun tarqoqlik koeffitsiyentlarini hisoblaymiz. Shu maqsadda dastlab tanlanma dispersiyalarni hisoblaymiz:

$$D_m = \frac{\sum_{i=1}^{n=3} n_i(x_i - \bar{x})^2}{(m-1)} = \frac{166(5-4,2)^2 + 154(4-4,2)^2 + 75(3-4,2)^2}{394} =$$

$$= \frac{166 \cdot 0,64 + 154 \cdot 0,04 + 75 \cdot 1,44}{394} = \frac{106,24 + 6,16 + 108}{394} = \frac{220,4}{394} \approx 0,56$$

$$D_n = \frac{\sum_{i=1}^{n=3} n_i(y_i - \bar{y})^2}{(n-1)} = \frac{73(5-3,8)^2 + 173(4-3,8)^2 + 157(3-3,8)^2}{402} =$$

$$= \frac{73 \cdot 1,44 + 173 \cdot 0,04 + 157 \cdot 0,64}{402} = \frac{105,12 + 6,92 + 100,48}{402} = \frac{212,52}{402} \approx 0,53$$

Bu natijalardan o'rtacha kvadratlik chetlanishlarni topamiz:

$$\tau_m = \sqrt{0,56} \approx 0,75 \qquad \tau_n = \sqrt{0,53} \approx 0,73$$

Bular asosida har ikki guruh uchun variatsiya ko'rsatkichlarini hisoblaymiz:

$$\delta_m = \frac{\tau_m}{\bar{X}} = \frac{0,75}{4,2} \approx 0,18 \qquad \delta_n = \frac{\tau_n}{\bar{Y}} = \frac{0,73}{3,8} \approx 0,19$$

Agar statistik alomatning qiymatdorlik darajasini  $\alpha = 0,05$  deb olsak, u holda Laplas funksiyasi jadvalidan statistika uchun kritik nuqta  $t_{kp}$  ni

$$\Phi(t_{kp}) = \frac{1-2\alpha}{2} = \frac{1-2 \cdot 0,05}{2} = \frac{0,9}{2} = 0,45$$

tenglikdan aniqlaymiz:  $t_{kp} = 1,67$ . Bundan baholashning ishonchli chetlanishlarini topsak:

$$\Delta_m = t_\gamma \frac{D_m}{\sqrt{m}} = 1,67 \frac{0,56}{\sqrt{395}} = \frac{1,67 \cdot 0,56}{19,87} = \frac{0,9352}{19,87} \approx 0,05$$

ga teng, nazorat guruhida esa:

$$\Delta_n = t_\gamma \frac{D_n}{\sqrt{n}} = 1,67 \frac{0,53}{\sqrt{403}} = \frac{1,67 \cdot 0,53}{20,07} = \frac{0,8851}{20,07} \approx 0,04$$

ga teng. Topilgan natijalardan tajriba guruhi uchun ishonchli intervalni topsak:

$$\bar{X} - t_{\gamma} \frac{D_m}{\sqrt{m}} \quad a_x \quad \bar{X} + t_{\gamma} \frac{D_m}{\sqrt{m}}$$


$$4,2 - 0,05 \quad a_x \quad 4,2 + 0,05 \qquad 4,15 \quad a_x \quad 4,25$$

nazorat guruhi uchun ishonchli interval:

$$\bar{Y} - t_{\gamma} \frac{D_n}{\sqrt{n}} \quad a_y \quad \bar{Y} + t_{\gamma} \frac{D_n}{\sqrt{n}}$$

$$3,8 - 0,04 \quad a_y \quad 3,8 + 0,04 \qquad 3,76 \quad a_y \quad 3,84$$

Buni geometrik tasvirlasak:



Demak,  $\alpha=0,05$  qiymatdorlik darajasi bilan aytilish mumkinki, tajriba guruhida oʻrtacha baho nazorat guruhidagi oʻrtacha bahodan yuqori boʻlar ekan.

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat koʻrsatgichlarini hisoblaymiz.

Bizga maʼlum  $\bar{x}=4,2$ ;  $s_x=3,8$ ;  $n_x$  ga teng.

Bundan sifat koʻrsatgichlari:

$$K_{yc6} = \frac{(\bar{X} - \Delta_m)}{(\bar{Y} + \Delta_n)} = \frac{4,2 - 0,05}{3,8 + 0,04} = \frac{4,15}{3,84} = 1,08 > 1;$$

$$K_{o66} = (\bar{X} - \Delta_m) - (\bar{Y} - \Delta_n) = (4,2 - 0,05) - (3,8 - 0,04) = 4,15 - 3,76 = 0,39 > 0;$$

Olingan natijalardan oʻqitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini koʻrish mumkin. Bundan maʼlumki, tajribadan keyingi koʻrsatgich tajribadan oldingi koʻrsatgichdan yuqori ekan. Demak, oʻquvchilarning Mahmudxoʻja Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik merosini oʻrganib borish jarayoni boʻyicha oʻquvchilar bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlari yuzasidan olingan natijalar samardor ekan.



Tajriba oxiriga kelib o'quvchilarning javoblari tajriba guruhlarida tez o'sishni ko'rsatsa, nazorat guruhlarida bu holni ko'rmaymiz. Bu tajriba o'tkazish metodikasi to'g'ri tanlanganligini, tajriba natijalari samarali bo'lganligini ko'rsatadi.

O'quvchilarning Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik merosini o'rganib borish jarayoni darajalari birinchi bosqichda-nazorat guruhlar o'quvchilarining savollarga yuqori, o'rta, quyi darajalarida 10,6; 35; 54,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, tajriba guruhlarida bu miqdor 10,3; 35,7; 54 foizdan iborat bo'lgan edi. Ikkinchi bosqichda-nazorat guruhlar o'quvchilarining savollarga javoblari yuqori, o'rta, quyi darajalar bo'yicha 18,1; 42,9; 39 foizni tashkil qilgan bo'lsa, tajriba guruhlarida 42; 39; 19 foizdan iborat bo'ldi. Tajriba natijalari biz tanlangan tadqiqot metodikasi to'g'ri, samaraliroq ekanligini ko'rsatdi.

**Xulosa va takliflar.** Biz Qashqadaryo viloyatining qator maktablarining boshlang'ich sinflarida savol-javob o'yinlarini o'tkazdik. Bunda quyidagi xulosalarga keldik:

yangi usul maktabi tarafdorlarining axloq-odobga doir hikoyalardan biz tajriba o'tkazayotgan sinflarda vatanparvarlik, ochiq yuzlilik, sahovat, o'zaro hurmat kabi sifatlar haqida o'quvchilarning bilimlari, tushunchalari kengaydi. Shuningdek, ular baxillik, ochko'zlik kabi xislatlarning salbiy natijalarga olib kelishini ko'rdilar. O'quvchilar yaxshi va yomon xulqlarni bir-biridan ajrata oldilar. Axloqiy hikoyalardagi kabi bir qator ijobiy axloqiy hatti-harakat qilishlari kuzatildi;

tadbirlarga tayyorgarlik davrida boshlang'ich sinf o'quvchilari bir qator hikoyalarni, hamda jadid ma'rifatparvarlarining hayoti, pedagogik faoliyati to'g'risidagi materiallar bilan tanishdilar. Bu o'z navbatida o'quvchilarning tarbiyasida ijobiy natijalarini bera boshladi. Tadbir natijasi o'quvchilarning axloqiy hikoyalarni qay darajada tushunganlarini ko'rsatib berdi;

yangi usul maktabi tarafdorlarining hayoti, faoliyatini o'rganish o'qish darslarida olgan bilimlari, tushunchalarining mustahkamlanishi, rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Boshlang'ich sinflarida savol-javob o'yinlarini o'tkazish samaradorligiga erishish uchun, o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashning amaliyotdagi ahvolini o'rganilishi, olib borilgan pedagogik ilmiy-tajriba ishlari natijalariga asoslanib – 1. Darslik mualliflariga quyidagi tavsiyalarni berish lozim deb topdik:

A. Boshlang'ich sinf darsliklarining mualliflari o'qish, tarbiya, sinf soatlari, sinfdan tashqari o'qish darsliklari mazmuniga:-birinchi sinfda Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval» asaridagi – “Ilm”, “Xulq va odob”, “Poklik”, “Muasa”, “Fatonat”, “Hamoqat”, “Befarosat”, “Aqlli o'g'il”, “Onaga hurmat”, “Aqlli kishi”; Munavvarqorining pedagogik merosidagi-“Birodarlarga muhabbat”, “Orif ila Sodiq”; Abdulla Avloniyning “Yamonlik jazosi”, “Qanoat”, “To'g'rilik”, “Ittifoq”, “Aqlli bola”; Qori Nizomiddin bin Mullo Husaynning “Izzat va hurmat”, “Shafqat” kabi hikoya va she'rlaridan namunalarni kiritish lozim.

B. Ikkinchi sinfda – Saidrasul Aziziyning “Yaxshi sifat”, “Yaxshi va yomon bola”, “Ikki oshna”; Munavvarqorining “Ahmad ila onasi”, “Iskandar ila Arastu”, “Hajjoj ila darvesh”, “Isrof, baxil va saxovat”, “Molning qadrini saxiy bilur”, “Ali ila Vali”; Abdulla Avloniy pedagogik merosidagi – “Arslon ila ayiq”, “Yolg'on do'st”, “Ahmad ila otasi”; Qori Nizomiddin bin Mullo Husaynning “Ilmi axloq” asaridagi “Sadoqat” kabi hikoya va she'rlaridan foydalanishlari mumkin.

V. Uchinchi sinfda – Saidrasul Aziziyning “Tulki birla uzum”; Munavvarqori ijodidagi-“Yolg'onchi bola”, “Baxilning bog'i ko'karmas”, “O'rinni saxovat”, Abdulla Avloniy darsliklaridagi – “Tog'lardan bir manzara”, “Hijron so'zi”, “Sabr”, “Munislik”, “Oliyhimmat”, “Haqqoniyat”, “Isrof”; Qori Nizomiddin bin Mullo Husayn ijodidagi – “Sahovat” kabi she'r va hikoyalardan namunalarni berish kerak.

G. To'rtinchi sinfda – Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval»idagi – “Qishloqi birla bolasi”, “Zuluk birla ilon”, “Bir necha do'stlik uchun ahd qilg'on musofirlar”; Munavvarqorining darsliklaridagi – “Bola qurboni”; Abdulla Avloniy ijodidagi – “Yolg'onchi cho'pon”, “Maktab bolasi”, “Vatan”, “Kizb”, “Axloq”, “Xulq”, “Yaxshi xulq”, “Yomon xulq”; Qori Nizomiddinning “Jaholat” kabi she'r va hikoyalardan foydalanish.

Darslik mualliflari ma'rifatparvar pedagoglarning asarlaridan foydalanishda hikoya va she'rlarni hozirgi o'zbek adabiy tiliga o'girib, boshlang'ich sinf o'quvchilarni yoshi, bilim darajasiga moslab, davlat ta'lim standarti va “Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi”da ko'rsatib berilgan yo'l-yo'riqlarga muvofiq qayta ishlab chiqib darsliklar mazmuniga kiritishlari lozim.

## 2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga:

a) tizimli va texnologik yondoshuvlar, ilg'or pedagogik texnologiyalar haqidagi g'oyalarga biz ishlab chiqqan dars modeliga asoslanib mashg'ulotlarni o'tishlari mumkin. Chunki, ilg'or pedagogik texnologiya asosida o'tilgan darslar samarali natijalar berishi ilmiy-tajribada isbotlandi;

b) dissertatsiyada ko'rsatib berilgan ma'rifatparvarlarning pedagogik merosi asosida axloqiy mavzudagi suhbatlar, adabiy ertaliklar, kitobxonlik konferensiyalari, viktorinalarni tashkil qilish va o'tkazish shakl-usul va yo'llaridan amaliyotda foydalanishlari mumkin.

## 3. Ota-onalarga:

a) quruq gap-so'z, nasihatvozlikdan ko'ra ma'rifatparvarlarning asarlaridan foydalanib, aniq dalil va misollar orqali bolalarni shuuriga ta'sir etishlari kerak;

b) ma'rifatparvarlarning asarlarini o'qib yoki aytib berishlari, mustaqil mutolaa qilishga tavsiya etishlari zarur.

4. O'quvchilarga: boshlang'ich sinf o'quvchilari darsliklardagi hikoya, she'r va boshqa asarlar bilan chegaralanib qolmasdan ma'rifatparvarlarning hayoti, faoliyati va pedagogik asarlarini o'qishlari zarur.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш. М. “Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. -Тошкент:”O`zbekiston” нашриёти, 2022. -440 бет.
2. Бозорова М.Қ. Кичик ёшдаги мактаб ўқувчиларида дўстлик, ўртоқлик хиссини тарбиялашда халқ анъаналаридан фойдаланиш (ўзбек халқ эртаклари асосида). Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 1994, – 172 б.
3. Курбанов Т. Формирование этической культуры старшеклассников на основе учебника “Одобнома”. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. В форме научного доклада. – Ташкент: 1995. – 23 с.
4. Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари. Пед. фан. докт. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 1993, – 364 б.
5. Мавлонова Р. А. Нормуродова Б. Тарбиявий ишлар методикаси. Ўқув қўлланма. Тошкент: “Фан”, 2008.
6. Мавлонова Р. А. Раҳмонкулова Н. Нормуродова Б. Матназарова К. Тарбиявий ишлар методикаси. Дарслик Низомий номидаги ТДПУ Ризографиясида нашр килинди. Тошкент, 2014.
7. Sarsenbayeva R. M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. -T. 2019



8. Тлябова Н.У. Мактабгача катта ёшдаги болаларда инсонпарварлик ҳис-гуйғуларини шакллантириш. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 1995. – 189 б.
9. Усмонов С. Бошланғич синфларда маънавий-маърифий ишларни ташкил этишнинг педагогик асослари. Пед..фан.номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс.... автореф. – Тошкент: 2004, – 24 б.
10. Hamroyev Sh. E. “Sinfдан va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish” Qarshi; “Fan va ta`lim”, monografiya,2023.-248 b.